

"Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi Konventsiya (Parij, 1972 yil 23 noyabr) talablarining Qoraqalpog'iston Respublikasida ijro etilishini o'rganish va muhokama qilish (Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va YuNY

"Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi Konventsiya (Parij, 1972 yil 23 noyabr) talablarining Qoraqalpog'iston Respublikasida ijro etilishini o'rganish va muhokama qilish (Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va YuNYeSKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan birgalikda) masalasiga bag'ishlangan qo'mita majlisida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi B.Yangibaevning kirish so'zi

**Assalomu Alaykum,
Hurmatli mehmonlar!**

Muhtaram majlis ishtirokchilari!

Xonimlar va Janoblar!

Majlis kun tartibida: "Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi Konventsiya (Parij, 1972 yil 23 noyabr) talablarining Qoraqalpog'iston Respublikasida ijro etilishini o'rganish va muhokama qilish (Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va YuNYeSKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan birgalikda) masalalari muhokama qilinadi.

Bugungi sayyor majlisimizda: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Tashqi siyosat masalalari qo'mitasi raisi SAFOYeV Sodiq Solihovich, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Nizamxodjaev Zayniddin Maxamatovich, YuNYeSKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Krista Pikkat xonim, Amerika Qo'shma Shtatlarining O'zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va Muxtor Elchisi Pamela Spratlen xonim, Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi Delegatsiyasi rahbari janob Yuriy ShTYeRK, Frantsiya Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi Elchixonasi madaniyat va hamkorlik bo'yicha maslahatchisi Olive Giyom, Amerika Qo'shma Shtatlarining O'zbekiston Respublikasidagi Elchixonasi Xavfsizlik bo'limi boshlig'i o'rinbosari Andrey Staytes, Amerika Qo'shma Shtatlarining O'zbekiston Respublikasidagi Elchixonasi xodimi Aleksandr Kaverin, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Tashqi siyosat masalalari qo'mitasi a'zolari Aripova Shoxida Raxmatovna, Yuldashev Sharipdjon, Bababekov Abdusattor Raxmanovich, Baxromov Toxir Saidovich, Ortikov Baxtiyar Begimkulovich, Xaydarov Mamat Eshkulovich, Shin Agrepina Vasilevna, Mirzaliev Iqboljon, Turdimov Erkinjon, Xolboev Normumin, Giyasov Rustam, bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi a'zolari Umarov Zokir, Jumaev Oybek, Sayfullaev Nodirbek, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, vazirlik va idoralar vakillari, oliy ta'lim muassasalari rahbarlari va Ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etmoqda.

Muhtaram majlis ishtirokchilari!

Avvalombor, bugungi "Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi Konventsiya talablarining Qoraqalpog'iston Respublikasida ijro etilishini o'rganishga bag'ishlangan" sayyor majlisimiz Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tkazilayotganligi va ushbu majlisda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi a'zolari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralar, xalqaro tashkilotlar va diplomatik korpus vakillari ishtirok etayotganligi menga katta mamnuniyat bag'ishlaydi.

Sizlarga tarixi teran, boy madaniy merosga ega Qoraqalpog'iston diyoriga tashrif buyurishingiz bilan avvalo, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va Vazirlar Kengashi nomidan minnatdorchilik izhor etar ekanman, bugungi majlisga, Nukus shahriga xo'sh kelibsizlar deyman hamda sayyor majlis tashkilotchilariga tashakkur bildiraman.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Qoraqalpog'iston Respublikasi davlatimizning nafaqat boy tarixiy va madaniy, balki tabiiy xususiyatlarga ega o'ziga xos hududlaridan sanaladi.

Kuhna tsivilizatsiya uchoqlaridan biri sanalgan bu zaminda yuzlab tarixiy-madaniy meroslar saqlangan. Respublika hududida boy va rang-barang arxeologik meros ob'ektlari joylashganligi bois har yili o'lkamizga keluvchi xorijiy mehmonlar soni yildan yilga ortmoqda. Bu yodgorliklar nafaqat sayyohlarni, balki tadqiqotchilarni, jumladan san'atshunoslar, arxeolog olimlar va boshqa soha tadqiqotchilari e'tiborini ham o'ziga ko'p jalb qilmoqda. Bu o'lka o'zining noyob madaniy, boy tarixiy merosi, shuningdek tabiiy manzarasi, qadimiy va o'rta asr yodgorliklari bilan dong taratgan

o'ziga xos «arxeologik qo'riqxon» hisoblanadi.

Bugungi majlis 1972 yili Parij shahrida YuNYeSKO tomonidan qabul qilingan "Umumjahon madaniy va tabiiy meros ob'ektlarini muhofaza qilish to'g'risida"gi Konventsiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasida ijrosi ta'minlanishi holatini o'rganishga bag'ishlangan ekan, mazkur konventsiyaning ikkinchi bo'limida, ya'ni "Madaniy va tabiiy merosni milliy muhofazaga olish va xalqaro muhofazaga olish" deb nomlangan qismida ta'kidlangan talablarga ko'ra, Davlatimiz tomonidan meros ob'ektlarini muhofazaga olish, ularni asrash, targ'ibot qilish yuzasidan qator chora-tadbirlar qabul qilingan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining

2001 yil 30 avgusttagi «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi, 2009 yil

13 oktyabrdagi O'RQ-229-son «Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil

29 iyuldagi 269-son «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining 2001 yil 28 dekabrdagi 143/11-son «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi va shuningdek, «Arxeologiya meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi Qonun va qarorlari amaliyotga keng jalb qilingan.

Shuningdek, Madaniy, tarixiy yodgorliklar, tabiiy ob'ektlar ro'yxatini olish, inventarizatsiya qilish, ularni davlat muhofazasiga olingan ob'ektlar ro'yxatiga kiritish, hukumat tomonidan tasdiqlash bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2006 yil 13 oktyabrdagi 166/10-sonli «Qoraqalpog'iston Respublikasidagi tarixiy va madaniy meros ob'ektlarning ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori va Madaniyat va sport ishlari vazirligining 2009 yil 18 noyabrdagi 1081-son qaroriga asos Qoraqalpog'iston bo'yicha 255 ta tarixiy-madaniy ob'ektlar davlat muhofazasiga olingan.

Shu bilan bir qatorda tabiat ob'ektlari asosida qo'riqxonalar, zakazniklar tashkil qilingan, bularga Sudoche, Saygachiy zakazniklari va Quyi Amudaryo biosfera rezervati taalluqlidir.

Madaniy va tabiiy meros ob'ektlarini targ'ib qilish, tadqiq qilish ishlari bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi, Qoraqalpog'iston davlat universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti olimlari tomonidan doimiy tarzda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Avstraliyaning Sidney universiteti bilan hamkorlikda qoraqalpog'istonli arxeolog olimlarning Xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi faoliyatiga joriy yil aynan 20 yil to'ladi.

Umuman olganda, respublikamizda madaniy-tarixiy va tabiiy merosimizni muhofaza qilish, saqlash sohasida katta ishlar amalga oshirilib borilmoqda.

Yutuqlarimiz qatorida muammolarimizning ham mavjudligini inkor etmaymiz, albatta. Bular to'g'risida bugungi chiqishlarda so'z qilinsa, kelgusi vazifalarimizni aniqlab, belgilab olishga, dasturilamal qabul qilishimizga ko'maklashishiga umid qilamiz va bugungi sayyor majlis qatnashchilarining ishlariga rivoj, muvafaqqiyatlar tilayman.

Hurmatli majlis ishtirokchilari, endi majlis kun tartibidagi masalalar bo'yicha majlis olib borish uchun **So'z**, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Tashqi siyosat masalalari qo'mitasi raisi **SAFOYeV Sodiq Solihovichga**

Ko'rib chiqildi:

Izlash

- 
- 
- 

- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)